



_____ hokimligi
*maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi*

_____ maktabgacha va
*maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
tarix fani o'qituvchisi*

_____ning
*20__-20__-o'quv yilida 5-sinflar uchun
II chorak tarixi fanidan*

DARS

ISHLANMALARI

“TASDIQLAYMAN”

O‘IBDO‘ _____

20__-20__-o‘quv yili 5-sinf tarixi fanidan II chorak uchun taqvim
mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazariy soat	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazil gan sana
1.	Dunyoning qadimgi davlatlari	1		
2.	Qadimgi dunyoning yetti mo‘jizasi	1		
3.	Tangalar – tarix guvohi	1		
4.	Savdo yo‘llari	1		
5.	Yangi dengiz savdo yo‘llarining ochilishi	1		
6.	Ishlab chiqarish texnikasining paydo bo‘lishi	1		
7.	Transport vositalarining ixtiro qilinishi	1		
8.	Aloqa vositalarining ixtiro qilinishi	1		
9.	3-Nazorat ishi	1		
10.	Yurtimizda ilm-fan taraqqiyoti	1		
11.	Yurtimizda ilm-fan taraqqiyoti	1		
12.	Mirzo Ulug‘bek va uning akademiyasi	1		
13.	4-Nazorat ishi	1		
14.	Adabiyot va san’at ravnaqi.	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Dunyoning qadimgi davlatlari

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarda mavzuga oid bilim va tushunchalar hosil qilsih, darsga bo'lgan qiziqishini ortirish, tarixiy an'analar va boy ma'naviyatga asoslangan, mamlakatimizning buguni va kelajakdagi rivojlanishi, gullab yashnashiga o'z hissasini qo'shish tushunchalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatish, bilimlarni boyitish va yangi bilim berish, vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg'ularini singdirish, ona Vatanimizga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg'otish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish va javob berish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

Tarixda yil hisobini o'qiy olish, tarixiy darvlarga oid chizmalarni o'qiy olish, rim raqamida yozilgan raqamlarni o'qiy oladi. Miloddan avvalgi, era, milodiy yillar o'rtasidagi farqlarni matematik amallar bilan yecha oladi.

Darsning metodi: og'zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism:

a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash:


a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Qadimgi Misr va Bobil davlatlari. Davlat – ma'lum bir hududda uyushgan odamlar (kishilik jamiyati)ni qonun kuchi bilan boshqaradigan tashkilot. Qonun esa davlat tomonidan belgilab qo'yiladigan va hammaning bo'ysunishi shart bo'lgan tartibqoidalaridir. Davlat dastlab miloddan avvalgi to'rtinchi ming yillik boshlarida Misr hududida tashkil topdi. Ular kichik-kichik shahar-davlatlar edi. Keyinchalik bu davlatlar o'rnida ikkita katta davlat tashkil etildi. Davrlar o'tishi bilan bu ikki davlat yagona davlatga birlashtirildi. Memfis shahri davlat poytaxti etib belgilandi. Davlatning ichki hayoti o'zaro urush-larsiz kechmadi. Uzoq davom etgan bu urushlar Mismni zaiflashtirdi. Oqibatda, Mismni dastlab Eron davlati, keyinchalik makedoniyalik Aleksandr, undan keyin esa Rim davlati bosib oldi. Osiyoning Misrdan uncha uzoq bo'lmagan qismida **Frot** va **Dajla** daryolari mavjud. Shu ikki daryo oralig'i Mesopotamiya deb atalgan. Mesopotamiya yerlari nihoyatda unumdor bo'lganligi uchun odamlar bu joylarni o'z manzilgohlariga aylantirdilar. Mesopotamiyada Bobil davlati tashkil topdi. Podsho Xammurapi hukmronligi davrida Bobil eng qudratli davlatga aylandi.



Ikki daryo oralig'idagi davlatlar



Qadimgi Hindiston

Qadimgi Xitoy va Hindistonda davlatning vujudga kelishi.

Miloddan avvalgi ikkinchi ming yillikda Xitoyning Xuanxe daryosi etaklarida dastlabki davlatlar vujudga keldi. Vaqt o'tishi bilan ularning soni ko'payib bordi. Ulardan biri – Sin davlatining hukmdori **Sin Shi Xuandi** miloddan avvalgi III asrda Xitoyni yagona davlatga birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. Xitoyda astronomiya, tibbiyot, geografiya ilmi hamda dehqonchilik rivojlandi. Hamma sevib ichadigan choyni xitoyliklar yetishtirganlar. Kompasni ham birinchi bo'lib xitoyliklar ixtiro qildilar. Xitoy tarixini o'rganishda tarixchi olim **Sima Syanning** «Tarixiy yilnomalar» kitobi juda qimmatli hisoblanadi. Hindistonda esa dastlabki davlatlar miloddan avvalgi birinchi ming yillikda tashkil topdi. Miloddan avvalgi III asrda esa podsho Ashoka Hindistonni yagona davlatga birlashtirishga erishdi. Hindlar ilm-fan sohasida ham katta yutuqlarga erishdilar. Xususan, ular «0» (nol) bilan boshlanadigan o'nta raqamni kashf etdilar. Natijada, o'nta raqam orqali istagan sonni ifodalash mumkin bo'ldi. Bu kashfiyot dunyo xalqlariga hali-hanuz ulkan xizmat qilib kelmoqda.

O'zbekiston hududidagi davlatlar.

O'zbekiston hududida tashkil topgan eng qadimgi davlatlar **Xorazm** va **Baqtriya** edi. Qadimgi Xorazm davlati salkam uch ming yillik tarixga ega. Ko'zaliqir shahri uning poytaxti bo'lgan.

Buni diqqat bilan o'qing!

«Xorazm tarixi o'zbek davlatchiligining qudrati va qadimiyligining tasdig'idir».

Poytaxti Baqtra shahri bo'lgan. Baqtriya davlati hozirgi O'zbekistonning janubida joylashgan edi. Baqtriya oltin, la'l kabi qimmatbaho ma'danlarga boy bo'lgan. La'ldan tayyorlangan mahsulotlar Xitoy, Hindiston va Misr kabi davlatlarda sotilgan.

Atamalar mazmunini bilib oling

Astronomiya – osmon jismlarining tuzilishi va harakatlarini o'rganuvchi fan.

Tibbiyot – kishilar sog'lig'ini saqlash, kasalliklarning oldini olish va davolash haqidagi bilimlar tizimi

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Davlat nima ekanligini izohlab bering.
2. Mulohaza yuriting: nima uchun odamlar uyushmasi (kishilik jamiyati) ni qonunsiz boshqarib bo'lmaydi?
3. Qadimgi Misr va Bobil davlatlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Qadimgi Xitoy va Hindistonni yagona davlatlarga birlashtirgan tarixiy shaxslarni qayd eting.

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: Qadimgi Xitoy va Hindistonning madaniyatida erishgan yutuqlarini taqqoslang.



Qadimgi hind	XII asrdagi arab	Hozirgi zamon
—	1	1
٦	6	6
8	8	8
٠	0	0

Raqamlar taraqqiyoti

O'IBDO': _____ (imzo) _____ (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Qadimgi dunyoning yetti mo‘jizasi

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarda mavzuga oid bilim va tushunchalar hosil qilsih, darsga bo‘lgan qiziqishini ortirish, tarixiy an‘analar va boy ma’naviyatga asoslangan, mamlakatimizning buguni va kelajakdagi rivojlanishi, gullab yashnashiga o‘z hissasini qo‘shish tushunchalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarni mustaqil ishlashga o‘rgatish, bilimlarni boyitish va yangi bilim berish, vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg‘ularini singdirish, ona Vatanimizga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish, berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg‘otish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlarini (urf-odatlar, marosimlar, milliy madaniy an‘analar va h.k.) hurmat qilish.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:

shaxs sifatida doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirish, ma’naviy va intellektual kamolotga intilish.

Darsning metodi: og‘zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

Nazorat: o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Yetti mo‘jiza haqida. Qadimgi manbalarda O‘rtayer dengizi atrofidagi mamlakatlarda bunyod etilgan va o‘z salobati, go‘zalligi bilan o‘sha zamon odamlarini hayratga solgan inshootlardan yettitasi «Qadimgi dunyoning yetti mo‘jizasi» deb yozib qoldirilgan.

Misr ehromlari. Qadimgi Misrda vafot etgan fir'avnlr uchun avval maxsus «uy» – tobut yasalgan. Bunday «uy» sarkofag deb atalgan. Fir'avnning mumiyolangan jasi unga solingan. Keyin bu sarkofag doimiy turarjoyga – toshdan qurilgan maqbaraga qo'yilgan. Bu maqbaralar ehromlar deb atalgan. Misr fir'avnlari hayotligi paytidayoq o'zlariga katta toshlardan piramida shaklida ehromlar qurdirib qo'yganlar. Kitoblarda yozilishicha, ehromlarning eng ulkanini fir'avn **Xufu** (yunonlar uni Xeops deb atashgan) qurdirgan.



Misr ehromlari

Xufu ehromini qurish uchun 2 million 500 mingta tosh sarflangan. Eng kichik toshning og'irligi 2,5 tonna bo'lgan. Ehrom toshlariga shunday ishlov berilganki, birining ustiga ikkinchisi qo'yilganda ular judayam zich yopishib turgan.



Semiramida osma

Semiramida osma bog'lari. Semiramida osma bog'larini qadimgi Ossuriya podshohi – malika **Semiramida** (asli ismi Sham- muramat) mil. avv. VIII asrda barpo ettirgan.

Bog' supaga o'xshash qilib qurilgan, supalarni ustunlar ko'tarib turgan. Supalar ustiga tuproqlar tashlanib, unga rangbarang gullar, har xil ko'chatlar o'tqazilgan. Har bir qavatdagi bog'ga zinapoyalar orqali chiqilgan. Har kuni ko'plab qullar tepaga suv tashishgan. Bog'dagi so'lim daraxtlar soyasi, tepadan pastga jilvirab oqayotgan suv salqini haqiqiy mo'jizaning o'zi bo'lgan. Keyinchalik bu bog'ni Bobil podshosi **Navuxodonosor II** vayron qilib tashlagan.



Olimp xudosi Zevs

Olimp xudosi Zevs haykali. Afsonalarga ko'ra, yunon xudolari Olimp tog'ida yashaganlar. **Zevs** xudolarning oliysi va odamzotning «otasi» hisoblangan. Uning nomi «yorug' osmon» degan ma'noni anglatgan. Qudratli Zevs sharafiga yunonlar 4 yilda bir marta mashhur sport musobaqalari – Olimpiya o'yinlarini o'tkazganlar. Yunonlar Zevsga atab ibodatxona va haykal bunyod etganlar. Xudolar podshosi Zevs taxtda o'tirgan holda tasvirlangan. O'ng qo'lida – ma'buda Nikaning haykali, chap qo'lida – muqaddas burgut o'rnatilgan podsholik hassasi, oltin libosga burkangan, tanasi fil suyagidan taroshlangan, ko'zlari qimmatbaho toshlardan yasalgan Zevs haykalining balandligi 12 metr edi. Haykal shu darajada mahorat bilan ishlanganki, uni tomosha qilgan kishining tashvishlari, g'am-g'ussalari tarqalib ketgan. Rivoyatlarga ko'ra, xudo Zevsning qizi Ma'buda **Artemida** sharafiga Efes shahrida (bu shahar hozir Turkiya davlati hududida joylashgan) qurilgan ibodatxona ko'rganlarni lol qoldirgan. Artemida hosildorlik, ov va Oy ma'budasi deb ishonilgan. Ayni paytda hayvonlar homiysi va ayollar madadkori ham hisoblangan. Ibodatxona ichiga yunon rassomlarining ajoyib asarlari joylashtirilgan.



Ma'buda Artemida ibodatxonasi

Quyosh xudosi Gelios haykali. Miloddan avvalgi III asrda Rodos shahri aholisi shaharning dushmanning bir yillik qamalidan xalos bo'lganligi sharafiga shahar homiysi

– Quyosh xudosi **Gelios**ning misdan balandligi 35 metrli haykalini bunyod etganlar. Haykaltarosh **Xaros** Quyosh xudosi Geliosning boshi Quyoshga tegib turgandek tasvirlagan haykalini bunyod etishga 12 yil sarfladi. **Aleksandriya mayog‘i**. Mil. avv. 283-yilda o‘sha zamonning ajoyib mo‘jizasi – Aleksandriya mayog‘i bunyod etildi. Mayoq kemalarning Aleksandriya shahri bandargohiga

kirish xavfsizligini ta‘minlashga xizmat qildi. Mayoqning balandligi 120 metr edi. Uning eng yuqori qismi gumbaz bilan qoplandi. Gumbazning ustiga «dengiz xudosi»

Poseydonning 7 metrlik haykali o‘rnatilgan. Gumbazni sayqallangan granit (tog‘ jinsi) ustunlar ushlab turgan. Uning ustki qismida kechasi bilan yonib turadigan mayoq olovi dengizchilarga uzoqdan ko‘rinib turgan. Mayoq atrofni kuzatish nuqtasi vazifasini ham bajargan.

Galikarnas maqbarasi. Hozirgi Turkiya davlati hududida Kariy viloyati bo‘lgan. Uning markazi nihoyatda boy va go‘zal Galikarnas shahri edi. Galikarnas maqbarasi mil. avv.

353-yilda vafot etgan hukmdor Mavsol xotirasi sharafiga bunyod etilgan. Bu maqbara ibodatxona vazifasini ham bajarardi. Maqbaraning kengligi 66 metr, uzunligi 77 metr, balandligi esa 46 metrni tashkil etgan. Maqbara mil. avv. 334-yilda makedoniyalik Aleksandr tomonidan vayron qilindi. Hozirgi kunda yetti mo‘jizadan faqat Misr ehromlarigina qad ko‘tarib turibdi.

Atamalar mazmunini bilib oling

Mayoq – kemalarga yo‘l ko‘rsatish uchun dengiz qirg‘og‘iga quriladigan va kema yo‘nalishini ko‘rsatib beruvchi jihozlarga ega bo‘lgan minora ko‘rinishidagi qurilma.

Maqbara – qabr ustiga qurilgan bino.

Rodos – O‘rtayer dengizidagi orollardan birining nomi. Orol Yunoniston (hozirgi Gretsiya) davlatiga tegishli.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Qadimgi dunyoning qaysi obidalari «yetti mo‘jiza» deb atalgan?
2. Misrda ehromlar nima uchun qurilgan?
3. Semiramida osma bog‘lari haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Zevs haykali haqida so‘zlab bering.
5. Nega ma‘buda Artemidaga atab ibodatxona qurilgan?
6. Galikarnas maqbarasi haqida nimalarni bilib oldingiz?

V. O‘quvchilarni rag‘batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustaxkamlab kelish.



**Quyosh xudosi
Gelios haykali**



**Aleksandriya
mayog‘i**

O‘IBDO‘: _____
(imzo) (sana)

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi


39 listdan iborat tarix fanidan 5-sinf II chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.



Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

**To‘lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#
Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'g'arak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**